

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.18/30.T.153.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
IRRIGATSIYA VA SUV MUAMMOLARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

UNGALOV AKMAL NAVRUZOVICH

**IQLIM O‘ZGARISHINING CHIRCHIQ DARYOSI OQIMI VA ATROF-
MUHITGA POTENSIAL TA’SIRINI MODELLASHTIRISH**

11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление диссертации доктора философии (PhD) по техническим
наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on technical
sciences**

Ungalov Akmal Navruzovich

Iqlim o'zgarishining Chirchiq daryosi oqimi va atrof-muhitga potentsial
ta'sirini modellashtirish..... 3

Ungalov Akmal Navruzovich

Моделирование потенциального воздействия изменения климата на
речной сток и окружающую среду реки Чирчик..... 25

Ungalov Akmal Navruzovich

Modeling the potential impact of climate change on the river-runoff and
environment of the Chirchik river..... 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 51

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.18/30.T.153.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
IRRIGATSIYA VA SUV MUAMMOLARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

UNGALOV AKMAL NAVRUZOVICH

**IQLIM O‘ZGARISHINING CHIRCHIQ DARYOSI OQIMI VA ATROF-
MUHITGA POTENSIAL TA’SIRINI MODELLASHTIRISH**

11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Texnika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.4.PhD/Gr295 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti va Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy tadqiqot institutlarida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) institut veb sahifasi (ecoilm.uz, ismiti.uz) va «Ziyonet» axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

G’afforov Husen Shirinovich

texnika fanlari falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Erkaboyev Furqat Iyasovich

texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Juliyev Muxiddin Komilovich

texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.

Yetakchi tashkilot:


Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.18/30.T.153.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2024 yil «4» may__ soat 14:00__ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100043, Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko‘chasi, 7a uy. (tel.: (71) 277-69-83; faks.: (71) 277-89-22; e-mail.: eco_ilm@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№1 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan). (Manzil: 100043, Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko‘chasi, 7a uy. (tel.: (71) 277-69-83; faks.: (71) 277-89-22; e-mail. eco_ilm@umail.uz:).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «_20_»_04___ kuni tarqatilgan.

(2024 yil «20»_04___ dagi ___1___ raqamli reestr bayonnomasi).



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda, iqlim o'zgarishi sharoitida daryo havzalarida suv resurslari bilan bevosita bog'liq bo'lgan atrof-muhitni muhofaza qilishda yerdan foydalanish va o'simlik qoplaminig o'zgarishi, havzalardagi eroziya jarayonlari, suv sathi dinamikasi, hamda ularni uzoq muddatli bashoratlashda global iqlim modellardan foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda, iqlim o'zgarishining atrof-muhitga ta'siri yumshatish asosan tabiiy omillar va inson faoliyati natijasida hosil bo'ladigan issiqxona gazlari emissiyasi natijasida yuzaga keladigan iqlim modellarining o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mintaqaviy miqyosdagi ta'sirni baholash, hamda iqlim o'zgarishiga moslashishni qo'llab-quvvatlash uchun qaror qabul qilishda ko'proq mintaqaviy iqlim modellardan foydalanish va amaliyotga joriy etish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda¹. Bu borada, jumladan Fillandiya, Yaponiya, Fransiya, Xitoy, Janubiy Koreya, AQSH va boshqa rivojlangan davlatlarda iqlim o'zgarishi sharoitida oqimning atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirini keskin kamaytirish va ta'sirlarni kelajak uchun bashorat qilishga imkon beruvchi zamonaviy usullar va geoaxborot texnologiyalariga asoslangan boshqaruv tizimini ishlab chiqish, atrof-muhitni himoya qilish samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda, global iqlim o'zgarishi bugungi kunning eng dolzarb va jiddiy muammolaridan biri bo'lib, butun dunyo mamlakatlariga ta'sir etayotgan oqibatlarni tabiiy resurslar, atrof-muhit, insoniyat salomatligi, suv resurslariga qanday ta'sir etishini bashorat qila olmaslik bilan, barqaror rivojlanish yo'lidagi jiddiy muammoni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan yog'ingarchilik intensivligining o'zgarishi, oqim sathi dinamikasi, eroziya, yerdan foydalanish va o'simlik qoplamidagi o'zgarishlar qurg'oqchilik, bo'ronlar, zaiflashtiruvchi jazirama to'lqinlar va toshqinlar kabi atrof-muhitga salbiy ta'sir etuvchi ekstremal tabiiy hodisalarni modellashtirish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, iqlim parametrlarining o'zgarishiga qarab yerdan foydalanish va o'simlik qoplamidagi o'zgarishlar, suv sathi dinamikasini yaqin va uzoq kelajak uchun ko'p spektrli sun'iy yo'ldosh tasvir sensorlari yordamida geoaxborot texnologiyalariga asoslab iqlim o'zgarishining atrof-muhitga ta'sirini bashorat qilishga qaratilgan muammolar yechimlarni topish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda iqlim o'zgarishining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish, shuningdek, yong'igarchilik intensivligi o'zgarishlari, eroziya muammolarini yechishga yordam beradigan yangi texnik yechimlar va texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar o'tazish va ularni amalga qo'llash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish, tabiatni muhofaza qilishga

¹ <https://www.ipcc.ch/site/assets/uploads/2018/02/ar4-wg2-chapter18-1.pdf>

raqamli texnologiyalarni joriy etish, monitoring yuritishda inson omilini qisqartirish va avtomatlashtirish tizimini yo'lga qo'yish"² bo'yicha vazifalar belgilangan. Ushbu yo'nalishda, jumladan, daryo havzasidagi biomassaning o'zgarishi, ekologik nuqtai nazardan o'zgarishlarning tarkibiy qismi va miqdoriy ko'rsatkichlarini baholashda maqsadli yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, daryo oqimini boshqarish usullari va texnologiyalarini yaratish, kelajakda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, ekologik oqim tushunchasi bo'yicha bir nechta samarali modellarni ishlab chiqish va ishonchli foydalanishni ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 31-maydagi "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-171-sonli qarori, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-sonli "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi", 2019-yil 10-oktyabrdagi «2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5863-son farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga doirasida bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Ekologik xavflar va ularning asosiy jihatlari, bu muammolarning kelib chiqish sabablarini global iqlim modellari, ma'lumotlar to'plami, modellar kombinatsiyasi asosida atrof-muhitga bo'layotgan salbiy ta'sirlar, oqimni bashoratlash va daryo havzasida erozion jarayonlar, yerdan foydalanish va o'simlik qoplamidagi o'zgarishlarning atrof-muhitga salbiy ta'sirlarini baholash, uning oqibatlarini, iqlim o'zgarishiga javoban o'tmishdagi va kelajakdagi iqlimiy farqlarni modellashtirish, oqim dinamikasi, yog'inlar, potensial evapotranspiratsiya va harorat ortishini tadqiq qilish masalalari bo'yicha Bao Anming, Philippe De Maeyer, K.H. Hamed, K. Abbaspour, Alishir Kurban, Byorn Klove, Jean-Nicolas Louis, J. Nyssen, R Arnold, A. Amanambu, X. Chen, F Meng, Garee Khan, Tie Liu, Ali Torabi Haghghi, Eldiyar Duulatov, Yerbolat Mukanov, A.Gulaxmadov, V.A.Duxovniy, G.Stulina, S.Usmanov, S.Alamanov, I.Chembarisov, M.Juliyev, A.Gafurov, H.G'affarov va boshqalar izlanishlar olib borganlar hamda ma'lum darajada ijobiy natijalarga erishilgan.

Mazkur ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlillari natijalari shuni ko'rsatadiki, daryo havzalarda iqlim o'zgarishi sharoitida ekologiya va atrof-muhitga bo'ladigan turli xil ta'sirlarni inobatga olib ilmiy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Irrigatsiya va suv muammolari, ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi BA-KXΦ-5-022 “Iqlim o'zgarish sharoitida O'zbekiston Respublikasi yer osti va yer usti suvlaridan samarali foydalanish, boshqarish va shakllantirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” (2017-2020); va AL-47-2110171 “Iqlim o'zgarishi sharoitida Surxondaryo va Qashqadaryo havzasidagi daryolar oqimini uzoq muddatli prognozlash modelini ishlab chiqish” (2021-2024) mavzularidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Iqlim o'zgarishi sharoitida Chirchiq daryosi oqimining atrof-muhitga bo'layotgan ta'sirini baholashda global iqlim modellarini moslashtirish va kelajak uchun modellashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Geoaxborot texnologiyalaridan foydalangan holda, ko'p spektrli sun'iy yo'ldosh tasvir sensorlari yordamida iqlim o'zgarishining atrof-muhitga ta'sirini baholash;

Yerdan foydalanish va o'simlik qoplamidagi o'zgarishlarni aniqlash va bashorat qilish;

Iqlim o'zgarishi sharoitida Chirchiq daryosi oqimi o'zgarishining atrof muhitga potensial ta'sirini tahlil qilish;

Global iqlim modellari foydalanib, tuproq eroziyasining atrof-muhitga ta'sirini baholash va bashorat qilish;

Global iqlim modellari yordamida yaqin va uzoq kelajak uchun daryo oqimidagi o'zgarishlarni modellashtirish;

Tadqiqotning obyekti sifatida Chirchiq daryosi havzasi yerdan foydalanish va o'simlik qoplamidagi o'zgarishlar, havzadagi eroziya, daryo oqimi va atmosfera yog'inlari qabul qilingan.

Tadqiqotning predmetini global iqlim ma'lumotlari yordamida Chirchiq daryosi havzasida sodir bo'layotgan jarayonlar, daryo oqimi, eroziya, iqlim parametrlarining ekologiya va atrof-muhitga ta'sirini baholash hamda oqim o'zgarishini modellashtirish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida ekologiya va gidrologiyada umum qabul qilingan uslublardan hamda geografik axborot tizimi asosida yerdan foydalanish va yer qoplami o'zgarishini baholash va bashorat qilish, havzadagi yeroziya tahlili, suv sathi o'zgarishini hisoblash bashoratlash, hamda dala tajribalari natijalarini qayta ishlash, matematik statistika va delta yondashuv usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Geo-axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, ko'p spektrli sun'iy yo'ldosh tasvir sensorlari yordamida iqlim o'zgarishining atrof-muhitga ta'sirini bashorat qilish usullari iqlim modellari asosida ishlab chiqilgan;

Iqlim o'zgarishining atrof-muhitga bo'lgan bo'g'liqligini ifodalovchi ta'sirlar, Chirchiq daryosi havzasi misolida yerdan foydalanish va o'simlik qoplamidagi o'zgarishlar bashorat qilingan;

Iqlim parametrlarining o'zgarishiga qarab suv sathi dinamikasining atrof-muhitga ta'sirini hisoblash usullari takomillashtirilgan;

Tuproq yeroziyasining atrof-muhitga ta'sirini baholashda global iqlim modellaridan foydalangan holda yeroziyani bashorat qilish usullari ishlab chiqilgan;

Mintaqa iqlimi uchun yuqori korrelatsiya koeffitsiyentiga ega 5 ta global iqlim modellari: ACCESS1-3; bcc-csm1-1-m; CanESM2; CSIRO-Mk3-6-0; GISS-E2-R samaradorligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Chiqchiq daryosi misolida, iqlim o'zgarishining daryo havzalari oqimi va atrof-muhitga potensial ta'sirini sabablari aniqlangan;

Oqim dinamikasini modellashtirish uchun yerdan foydalanish va o'simlik qoplami xaritasi ishlab chiqilgan va kelajak uchun bashorat qilingan;

Iqlim o'zgarishining daryo havzalari oqimi va atrof-muhitga bo'lgan potensial ta'sirini baholash va bashorat qilish uchun kuzatuv stansiyalar tarmog'i yetarli bo'lmagan Markaziy Osiyo kabi cheklangan ma'lumotlarga ega bo'lgan mintaqalarda muqobil ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan maqsadda sun'iy yo'ldosh tasvirlari, masofadan zondlash ma'lumotlari va geoaxborot (GAT) texnologiyalarini boshqarishda tezkor qarorlar qabul qilish uchun muhimligi aniqlangan.

Daryo havzalarida suv dinamikasidagi o'zgarishlarni bashoratlashning umumlashtirilgan usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Tadqiqot natijalarining to'g'riligi, tanlangan modellarni global iqlim modellari bilan birlashtirgan holda qayta simulyatsiya qilish uchun zarur parametrlarni ishlab chiqishda griflangan iqlim ma'lumotlaridan foydalanilganligi bilan izohlanadi. Chirchiq daryosi havzasidagi daryolar oqimini umume'tirof etilgan qonuniyatlar bo'yicha baholashda ekstremal oqim prognozlarining tarkibiy qismlarini belgilash, nazariy natijalar va amaliy tadqiqotlar natijalarini bilan taqqoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uchta istiqbolli davr - 2030 (2020-2039), 2050 (2040-2069) va 2070 (2060-2099) yillar uchun RCP-4.5 va RCP-8.5 representativ ssenariylarining RUSLE modeli va global iqlim modellari integratsiyasiga asoslanib, yog'ingarchilik yeroziyasi yaqin va uzoq kelajakda Chirchiq daryosi havzasida suv sathining dinamikasi, shuningdek, 2075 va 2100 yil uchun Chirchiq daryosi havzasida yerdan foydalanish va o'simlik qoplamidagi o'zgarishlar LCM modeli yordamida TyerrSet platformasida simulyatsiya qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati iqlim o'zgarishi ma'lumotlari to'plamining turli kombinsiyalari va kuzatuv ma'lumotlarini e'tiborga olgan holda, beshta yuqori korrelyatsiya koeffitsientiga ega global iqlim modellari asosida daryo oqimining atrof-muhitga potensial ta'sirini yaqin va uzoq istiqbolli kelajak uchun oldindan bashorat qilish, Chirchiq daryosi havzasida atrof-muhitni muhofaza qilish, bioxilma-xillikni asrash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosilining

barqarorligini, shu orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, suv resurslarini optimal taqsimlash va operativ boshqarish imkoniyati yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqlim o'zgarishining Chirchiq daryosi oqimi va atrof-muhitga potensial ta'sirini modellashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Iqlim o'zgarishi sharoitida oqim o'zgarishining atrof-muhitga bo'lgan ta'sirini hisoblash usullari "Sirdaryo havzasi suv xo'jaligi birlashmasi" da joriy etilgan (Suv xo'jaligi vazirligining 2023-yil 25-maydagi BP27857800-sonli ma'lumotnomasi). Natijada iqlim o'zgarishi sharoitida suv taqchilligi, qurg'oqchilik va atrof-muhitni muhofaza qilishda tezkor chora-tadbirlar ishlab chiqishga imkon yaratilgan.

Ko'p spektrli sun'iy yo'ldosh tasvir sensorlari yordamida iqlim o'zgarishining atrof-muhitga ta'sirini bashorat qilish usullari O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vazirligi va suv xo'jaligi boshqarmalarida joriy qilingan (Suv xo'jaligi vazirligining 2023 yil 25-maydagi BP27857800-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu usulni joriy qilish orqali tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yerishilgan.

Statistik, MODSNOW, SWAT, LCM kabi intyerfeysli modellar jamlanmasidan iborat tezkor qarorlar qabul qilish imkonini byeruvchi, fazo va makon bo'ylab taqsimlangan ma'lumotlar asosida iqlim o'zgarishi sharoitida daryo havzalarida oqimining atrof-muhitga bo'lgan ta'sirini baholashga imkon yaratuvchi ma'lumotlar bazasi ishlab chiqilgan (Suv xo'jaligi vazirligining 2023-yil 25-maydagi BP27857800-sonli ma'lumotnomasi). Natijada iqlim o'zgarishi kontekstida oqim o'zgarishining atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirini tezkor hisoblash hamda bartaraf etilishiga yerishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro, respublika miqiyosidagi anjumanlarda va institut ilmiy kengashida muhokama qilingan va ma'qullangan, shu jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissyertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissyertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 1 tasi xorijiy jurnal hamda 2 ta EHM dasturi uchun guvohnoma olingan.

Dissyertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissyertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissyertatsiya hajmi 110 bet.

DISSYERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissyertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, tadqiqot ob'ekti va predmeti to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bajarilgan tadqiqotlarning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan va

tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Iqlim o'zgarishining daryo havzasi oqimi va atrof-muhitga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida oqim dinamikasi va uning atrof-muhitga ta'siri ko'rib chiqilgan. Oxirgi o'n yillikdagi iqlimning shiddat bilan o'zgarishi va natijada yog'ingarchilik intensivligi va chastotasidagi o'zgarishlar daryo havzalarida suv sathining o'zgarishlariga olib keldi. Buning natijasida atrof-muhitga ta'sir etuvchi potensial omillar ko'payib bormoqda. Yog'ingarchilik intensivligidagi o'zgarishlar va ekstremal ob-havo hodisalari, ayniqsa, qor va muzliklarning yerishi, shamol tezligi va radiatsiya o'zgarishi tufayli bug'lanish jarayonlariga ta'sir ko'rsatdi, yuqorida keltirilgan omillar suv resurslarining mavjudligi, ularning miqdor va sifatiga o'zgarishi natijasida atrof-muhitga bo'lgan salbiy oqibatlariga olib kelmoqda.

Daryo havzasi oqimi dinamikasining tabiiy resurslarga ta'siri o'rganilib, iqlim o'zgarishi sharoitida daryo havzalardagi iqlimiy o'zgarishlar, suv resurslarining dinamik harakatlari va meteorologik hamda gidrologik jarayonlar o'zgarishining tabiiy resurslarga ta'sirini baholash usullari tahlili ko'rib chiqilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o'tkazish metodi va ob'ektining tasnifi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob'ekti bo'yicha mavjud metodlar va materiallar haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, unda tadqiqot ishini olib borishda hisoblash uchun ishlatiladigan usul, fazo va vaqtinchalik o'zgaruvchanlikning baholash metodlari bayon etilgan. Mazkur keltirilgan tadqiqotlar va baholash usullari Chirchiq daryosi havzasida olib borilgan.


Chirchiq daryosi havzasi respublikadagi eng yirik va muhim havzalardan biri hisoblanadi, daryo Toshkent viloyatining shimoliy-sharqida joylashgan, iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga tayanadi. (1-rasm). Chirchiq daryosi Talas Olatovi yon bag'irlari va uning janubiy-g'arbiy shohlaridan oqib o'tadi.

Toshkent viloyatining bosh daryosi Chirchiq Pskem va Chotqol daryolarining qo'shilishidan hosil bo'lib, manbalari 4400 m balandlikda joylashgan. Uning uzunligi 225 km, havzasining maydoni 14240 km².


Daryo asosan qor, yomg'ir va yyer osti suvlari bilan to'yinadi. Havzaning eng baland nuqtasi dengiz sathidan 4299 m balandlikda joylashgan Beshtar cho'qqisi Pskem tizmasida bo'lib, u Sirdaryoga qo'shib ketgunga qadar janubi-g'arbga oqadi. Daryo havzasi katta maydonga ega emas, lekin suv resurslarining shakllanishini hisobga olgan holda tadqiqot hududi Chirchiq daryosi havzasining irmoqlari bilan birlashtirildi (2-rasm), shu sababdan o'rganilayotgan hududning umumiy maydoni 22120,9 ming km² ni tashkil qiladi. Havzasining barcha irmoqlari tog'li hududlarda joylashganligi sababli, modelni simulyatsiya qilish uchun iqlim o'zgarishining Chotqol, Pskem va Ugom daryolari havzalariga kuchli ta'sirini hisobga olgan holda, suv resurslarining shakllanish manbai sifatida o'rganildi.

Chorvoq suv ombori qurilgunga qadar Chirchiq ikki asosiy daryo: chapda Chotqol va o'ngda Pskem qo'shilish joyini hosil qilgan.

Daryo havzasi O'zbekiston hududida (Toshkent viloyati) va biogeografik birlik sifatida G'arbiy Tyan-Shanda joylashgan. Qurg'oqchil hududlar bilan o'ralgan chuchuk suv manbai bo'lib, nisbatan past muzlash, ko'p yog'ingarchilik (past tog'lar sharoitida 800 mm/yil) va mo'tadil iqlim bilan tavsiflanadi.



1 - rasm. Tadqiqot obyekti, kuzatuv stansiyalarining joylashuvi.



2 - rasm. Tadqiqot hududining umumiy ko'rinishi:

(a) joylashuvi va geografiyasi; (b) DEM (raqamli balandlik modeli, (CHABT - Chirchiq-Oxangaron havzasi hududi, PBT - Pskem havzasi hududi, UBT - Ugom havzasi hududi, CHBT - Chotqol havzasi hududi); (c) 1990-2020 yillardagi o'rtacha yillik yog'ingarchilikning fazoviy taqsimoti. O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazidan (O'zGidromet) va (d) yyerdan foydalanish/o'simlik qoplami sinflari.

Iqlimiy o'zgarish sharoitida daryo havzalarida mavjud suv resurslarining yaqin va uzoq kelajak uchun taqsimlanishi bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lib, ular daryo havzalari va ekologik zonalar (yuqori, o'rta, quyi) uchun xos bo'lgan mintaqaviy cheklovlar bilan bog'liq.

Daryo havzasida suv resurslarining o'zgarishi natijasida meteorologik ma'lumotlarni tahlili qanday o'zgarayotganligini baholash maqsadida kuzatuv ishlarini (1990-2020) va tarixiy GCM³ ma'lumotlari (1975-2005) o'rtasidagi yuqori korrelyatsiyani topish uchun chiziqli tenglamadan foydalanilgan (1). Kelajakdagi meteorologik ma'lumotlarning manbalari sifatida CMIP5⁴ arxividagi beshta GCM modelidan yog'ingarchilik bo'yicha kunlik ma'lumotlar olingan.

$$R^2 = \frac{n \sum Q_i Q'_i - \sum Q_i \sum Q'_i}{\left(\sqrt{n(\sum Q_i^2) - (\sum Q_i)^2} \right) \cdot \left(\sqrt{n(\sum Q_i'^2) - (\sum Q_i')^2} \right)} \quad (1)$$

Bu yerda, $Q_i = 30$ yil davomidagi oylik yog'ingarchilik yig'indisi, $Q'_i =$ oylik yog'ingarchilikning simulyatsiya qilingan yig'indisi, $n =$ oylik yog'ingarchilik qiymatlari soni.

Nesh-Sakliff simulyatsiya samaradorligi (NSE) ko'rsatkichi samaradorlikni baholash uchun eng ko'p qo'llaniladigan statistik ko'rsatkichlardan biridir (2).

$$NSE = 1 - \frac{\sum_{i=1}^n (Q_i - Q'_i)^2}{\sum_{i=1}^n (Q_i - \bar{Q}_i)^2} \quad (2)$$

Bu yerda, $Q_i =$ kunlik yog'ingarchilik, $Q'_i =$ simulyatsiya qilingan kunlik yog'ingarchilik, $Q_i -$ kuzatilgan davr uchun o'rtacha kunlik yog'ingarchilik, $\bar{Q}_i -$ simulyatsiya qilingan davr uchun o'rtacha kunlik yog'ingarchilik, $n =$ kunlik yog'ingarchilik qiymatlari soni.

Yuqoridagi statistik tahlillar asosida iqlim o'zgarishi asosida suv resurslarni baholashda kelajak uchun tabiiy resurslarni taqsimlash juda muhimdir. Shuning uchun iqlim o'zgarishi xususiyatlarining suv resurslari bilan bevosita bog'liq ravishda atrof-muhit muhofazasi, oziq-ovqat xavfsizligi va ekotizimga ta'sirini baholash uchun iqlim o'zgarishi ssenariylarini ishlab chiqish talab etiladi. Iqlim ssenariylari kelajakda iqlim o'zgarishi natijasida atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarini baholash uchun antropogen omillarning mumkin bo'lgan qiymatini aniqlashdagi o'zgarishlarni inobatga olib kelajak uchun modellashtirish usullarini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Keltirilgan omillarni inobatga olib Chirchiq daryosi havzasi uchun iqlim o'zgarishi sharoitida atrof-muhitga patensial ta'sirini modellashtirishda turli hil ssenariy modellardan foydalanildi.

³ GCM - Global Circulation Model


⁴ CMIP5 - Coupled Model Intercomparison Project Phase 5

Iqlim o'zgarishi ssenariylari haqidagi ma'lumotlar ko'p modeli ma'lumotlar bazasining 5-bosqichi (CMIP5), Umumiy aylanish modelidan (GCM) olingan.

Tarixiy yerdan foydalanish xaritalari ISMITI tomonidan Landsat7 sun'iy yo'ldosh tasviridan olingan multispektral TM/ETM+/OLI sensorlari yordamida yaratilgan.

Raqamli balandlik modeli (DEM) AQSh Geologik xizmati (USGS) Koinot Radar Topografiya Missiyasi (SRTM)dan yuklab olingan.

Iqlim o'zgarishini baholash. Daryo havzasining turli xil davrlari olindi, bular **2030** (2020-2039), **2050** (2040-2069) va **2070**-yillar CMIP5 arxividan olingan. GCM ssenariylari reprezentativ konsentratsiya yo'llaridagi **RCP-4.5** va **RCP-8.5** ishlatildi. Iqlim o'zgarishi tendensiyalarini hisobga olgan holda, kelajakda Chirchiq daryosi havzasining iqlimiy holatini baholashda muhim vosita sifatida foydalaniladi. Shunday qilib, ishlab chiqilgan modelning qarorlarini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida foydaliligi ko'rsatildi.



3 – rasm. Iqlim o'zgarishi sharoitida daryo havzasida oqim, yeroziya va yer qoplami o'zgarishining detyerministik modelashtirish strukturasi.

Bunda iqlim o'zgarishi asosida Chirchiq daryosi havzasida suv oqimining o'zgarishining tabiiy resurslarga ta'sirini baholash uchun ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va sharhlash algoritmlariga ega ArcGIS, ENVI kabi dasturiy ta'minotlar, LCM, RUSLE kabi modellar va delta usullari qo'llanilgan (2-rasm).

- 1 LANDSAT sun'iy yo'ldosh suratlaridan multispektral TM/ETM+/OLI sensorlari yordamida yerdan foydalanish va o'simlik qoplamidagi o'zgarishlar maksimal ehtimollik bilan tasniflash (supervised classification with Maximum Likelihood) bosqichi.
- 2 TerrSet platformasida Land Change Modeler (LCM) modeli yordamida yerdan foydalanish va o'simlik qoplamidagi o'zgarishlar kelajak uchun bashorat qilish bosqichi. Kelajakdagi stsenariyni kuzatish va bashorat qilish uchun Markov zanjiri modellashtirishining sezgir parametrlarini o'rganish, baholash va aniqlashga orqali simulatsiya qilindi.
- 3 RUSLE modelidan foydalangan holda yog'ingarchilik eroziyasini baholash, va RCP-4.5 va RCP-8.5 reprezentativ stsenariylarida uch istiqbolli davr – 2030 (2020-2039), 2050 (2040-2069) va 2070 (2060-2099) yillarda havzadagi tuproq eroziyasini bashorat qilish bosqichi. RUSLE - bu empirik model bo'lib, u tuproq eroziyasi tufayli uzoq muddatli o'rtacha yillik tuproq yo'qotilishini hisoblaydi.
- 4 Daryo havzasida yerdan foydalansih va o'simlik qoplamidagi o'zgarishlar, eroziya jarayonining oqim dinamikasiga ta'siri va daryo oqimini bashorat qilish bosqichi. Ishlab chiqilgan modelar kalibrlab tekshirilgandan so'ng RCP-4.5 va RCP-8.5 reprezentativ stsenariylarida uch istiqbolli davr – 2030 (2020-2039), 2050 (2040-2069) va 2070 (2060-2099) yillar uchun oqim dinamikasi bashorat qilindi.

Iqlim o'zgarishi natijasida Chirchiq daryosi oqimi va atrof-muhitga potensial ta'sirni o'rganishda fazoviy taqsimlangan model qo'llanildi. Model iqlim o'zgarishi sababli yog'ingarchilikning tuproq yeroziyasiga va suv sathiga ta'sirini tahlil qilish, atrof-muhitga potensial ta'sirni o'rganishga imkon beradi va bu tabiiy ekotizimlar, bioxilma-xillik, shuningdek, qishloq xo'jaligi va iste'molchilarning suv bilan ta'minlanishi uchun juda muhimdir.

Dissyertatsiyaning **“Iqlim o'zgarishining yerdan foydalanish va oqimga ta'siri”** deb nomlangan uchinchi bobida Chirchiq havzasida yerdan foydalanish turlarining o'zgarishi, iqlim o'zgarishining daryo havzasiga ta'siri, Chirchiq daryosi oqimi va atrof-muhitga potensial ta'sirini modellashtirish kabi masalalar ko'rib chiqilgan va tavsiyalar byerilgan.

Yog'ingarchilik intensivligi va chastotasidagi keskin o'zgarishlar daryolar oqimiga, harorat o'zgarishi esa muzliklar massa balansida sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan iqlim o'zgarishi xususiyatlarining daryo havzalarida suv resurslari bilan bevosita bog'liq bo'lgan atrof-muhitga ta'sirini baholash uchun iqlim o'zgarishi ssenariylarini ishlab chiqishni talab etadi.

Modellashtirish asosida daryo havzalarida yyerlardan foydalanish, o'simlik qoplami va boshqa ekologik ko'rsatkichlarning o'zgarishini, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi kelajakdagi o'zgarishlarni bashorat qilish mumkin.


Yillar davomida Chirchiq daryosining suv resurslarini boshqarish va taqsimlash usullari ishlab chiqilgan. Bu usul matematik modellashtirishga asoslangan. So'nggi yillarda daryo havzasi tizimidagi gidrologik modellar Yevropa Ittifoqi yordamida ko'pgina omillarni (quyosh radiatsiyasi, namlik, shamol tezligi va ekin turlari va boshqalar) hisobga olmasdan ishlab chiqilgan va bu modellar tasdiqlanmagan. Yuqoridagilardan farqli o'laroq, ushbu tadqiqot ishida iqlim o'zgarishi sharoitida Chirchiq daryosi havzasida turli sharoitlarida iste'molchilar o'rtasida suvni optimal taqsimlash va uning atrof-muhitga ta'sirini baholash usullarini ishlab chiqildi.

Yerdan foydalanish, o'simlik qoplaminig o'zgarishi natijasida yer yuzasidagi bioxilma xillikni kamayib borishiga turli xil sabablar bo'lishi mumkin. Antropogen omillar, urbanizatsiya, tuproq eroziyasi kabi tabiiy omillar,

evapotranspiratsiya, infiltratsiya va bug‘lanishdagi yo‘qotishlarning ta’siri tufayli daryo havzalarida jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Shuningdek, bu, o‘z navbatida, daryo havzalarining suv balansiga ta’sir qiladi. Masofadan zondlash usullari esa suv resurslarini boshqarishning yangi tendensiyasini ochdi. Daryolardan masofa DIVA-GIS veb-sahifasidan shakl fayllari sifatida yuklab olingan va ArcMap fazoviy tahlil vositalariga o‘rnatilgan “Euclidean distance” masofasidan foydalangan holda, mos ravishda o‘rganilayotgan hududdagi obyekt (yo‘llar va daryolar) ma’lumotlari to‘plamining shakl fayllari orqali yaratilgan.

Yerdan foydalanish va o‘simlik qoplaminig o‘zgarishi monitoringi (LULC⁵) hozirda yerdan foydalanishni rejalashtiruvchilar va menejyerlar, tabiatni muhofaza qiluvchilar va ekologlar uchun jiddiy tashvishdir. Bu uning yer yuzasidagi biofizik va biogeokimyoviy jarayonlarga ta’siri bilan bog‘liq. Biroq, ushbu tadqiqotda 1990-2020-yillar davomida Chirchiq havzasidagi yerdan foydalanish xususiyatlari va o‘simlik qoplamidagi o‘zgarishlar TerrSet⁶ platformasida LCM⁷ modelidan foydalangan holda modellashtirildi (4-rasm).

1990 va 2020-yillar uchun cho‘kindi yuki (t/yil) va LULC o‘zgarishi natijasida tuproqning o‘rtacha yillik yo‘qotilishi tahlil qilindi. Asosiy muhim o‘zgarishlar o‘rmonlar, o‘tloqlar va hozirda qurilish hududlarida sodir bo‘ladi (4-rasm).



4-rasm. Chirchiq daryosi havzasida yerdan foydalanish natijasida o‘simlik qoplaminig o‘zgarishi xaritasi

Geoaxborot texnologiyalari va masofadan zondlash usullaridan foydalangan holda yerdan foydalanish tasniflandi. 1990-2020-yillarda yerdan foydalanishdagi o‘zgarishlarni hisobga olib, tadqiqot ob’ekti uchun 2075 va 2100-yillarga mo‘ljallangan kelajakdagi yerdan foydalanish xaritasi tuzildi (4-rasm). Kelajak uchun ishlab chiqilgan xaritada (5-rasm), Chirchiq daryosi havzasida 2075-yil va 2100-yilgacha bo‘lgan davrda tadqiqot obyektida bo‘ladigan o‘zgarishlar bashorat qilingan. Modellashtirish natijalari qishloq xo‘jaligi yerlarining havzaning yuqori


⁵ Land Use and Land Cover

⁶ TerrSet - raqamli geofazoviy ma’lumotlarni tahlil qilish va ko‘rsatish uchun integratsiyalangan geografik axborot tizimi va masofadan zondlash dasturi.

⁷ Land Change Modeler


qismiga qarab kengayish borishi, shuningdek, yaylovlar va suv resurslari miqdorining kamayishini tushuntiradi.

Ishlab chiqilgan ssenariylar bo'yicha Chirchiq daryosi havzasida suv sathi ko'payishi tendensiyasi mavjud bo'lsada, suv resurslarining notekis taqsimlanishi kelajakda havzadagi suvdan foydalanuvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda mavjud suv yetarli bo'lmasligi taxmin qilindi.




5-rasm. Iqlim o'zgarishi sharoitida Chirchiq daryosi havzasida kelajakdagi bioxilma-xillikni o'zgarish dinamikasi

2030, 2050 va 2070-yillar uchun daryo oqimining o'rtacha yillik o'zgarishi yog'ingarchilik faolligi nisbati bo'yicha tahlil qilingan va kelajakdagi yillik o'zgarishlarga bog'liqlik tendensiyasi 6-rasmda keltirilgan. Grafiklarga ko'ra, o'rtacha yillik o'zgarishlar ikkala gidropostda ham sodir bo'ladi va yog'ingarchilik koeffitsiyenti ortganida suv sathi pasayadi, bu ikki kuzatuv punkti orasidagi suv resurslaridan foydalanish bilan bog'liq. Ssenariylar havzadagi suvning ko'payishini anglatadi, ammo kelajakda suv resurslarining mavjudligini aniqlamaydi. Bu yerda biz bug'lanish va haroratning o'zgarishini hisobga olishimiz kerak, chunki ikkala omil iqlim o'zgarishi ta'sirini baholashda juda muhim rol o'ynaydi, bu yerda evapotranspiratsiya haroratga parallel ravishda o'zgaradi.



6-rasm. Chirchiq daryosi havzasida 2030, 2050 va 2070 davrlar uchun suv oqimining yillik yog'ingarchilikka nisbati (G'azalkent va Chinoz gidropostlari).

Dissyertatsiyaning “Iqlim o'zgarishi sharoitida yeroziyaning atrof-muhitga ta'sirini baholash” deb nomlangan to'rtinchi bobida Chirchiq havzasida yog'ingarchilik intensivligi o'zgarishlarining yeroziya va atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'siri baholangan hamda kelajak uchun global iqlim modellaridan foydalanib bashorat qilingan va tavsiyalar berilgan. Ushbu bobda geoaxborot tizimi negizida RUSLE⁸ modelidan foydalangan holda yeroziyasi jarayonlarini bashorat qilishda potensial tuproq yeroziyasini baholash va bashorat natijalari keltirilgan (7-rasm).



7-rasm. RUSLE modeli yordamida tuproq yeroziyasi baholash blok-sxemasi

Tuproq yeroziyasi asta-sekin sodir bo'ladi va unumdor tuproqqa bevosita yog'ir orqali ta'sir qiladi. Bu nafaqat qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga, balki atrof-muhitga va insoniyat hayotining umumiy barqarorligiga tahdid soladigan jiddiy global ekologik muammo sifatida tan olingan.

